



BOSHLANG‘ICH TA‘LIM MUASSASALARDA TARBIYAVIY ISHLARNI ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA QO‘LLASH HOLATI

Karimjanov A.

ChDPU. Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi kafedrası dotsenti.

Tayanch so‘zlar: jamiyat, oila, Vatan, loiha, ilmiy intellektual, yondashuvlar, tadbirkorlik, sadoqat.
Ключевые слова: общество, семья, Родина, лоиха, научный интеллект, подходы, предпринимательство, лояльность.

Key words: society, family, Homeland, moose, scientific intelligence, approaches, entrepreneurship, loyalty.

Резюме:

maqolada hozirgi zamon ta‘lim jarayonida boshlang‘ich sinf talabalarda tarbiyaviy ishlarni zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etishning uziga xos xususiyatlarini aks etilgan.

Резюме:

в статье отражены особенности организационной воспитательной работы у учащихся начальных классов на основе современных подходов в современном образовательном процессе.

Summary:

the article reflects the peculiarities of the organization of educational work among primary school students based on modern approaches in the modern educational process.

Hozirgi zamon voqeliklardan kelib chiqqan holda tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar o‘qituvchidan doimiy izlanishni, o‘quv faoliyatda tarbiyaviy ishlarning yangi, nisbatan samaraliroq usullari va vositalaridan foydalanib ishlashni talab etmoqda. Yoshlarni barkamol avlod sifatida tarbiyalash ularni ma‘naviy-ma‘rifiy qobiliyatlarini o‘stirish, ularni jamiyatga, oilaga, Vatanga manfaat keltiradigan sifatida voyaga yetkazish o‘quv nazariyasining muammolaridan hisoblanadi.

Birinchi naubatda o‘quv muassasalar ta‘lim tizimini zamonaviy loyihasi tayyorlanib, ta‘lim tizimining asosi bo‘lgan yangi o‘quv rejalar, dasturlar yaratildi.

Viloyat markazlarida tashkil etilgan oliy o‘quv yurtlarida mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish, ularning ilmiy intellektual imkoniyat va moddiy texnika bazasini mustahkamlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar



Mahkamasi “O‘zbekiston Respublikasi mintaqaviy oliy o‘quv yurtlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” maxsus qaror qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risidagi milliy yuqov dastur”, hamda kadrlar tayyorlash sifatini oshirishda oliy ta‘lim muassasalari pedagog xodimlarini kasbiy-dunyoviy bilimlarini yuqori darajaga kʻytarish, moddiy texnika bazasini mustahkamlash va rivojlantirish, ularni zamonaviy o‘quv laboratoriya uskunalari va kompyuter texnikasi bilan jihozlash, mashg‘ulotlik va o‘quv uslubiy materiallar, pedagog kadrlar bilan ta‘minlash amalga oshirildi. Shuningdek, mamlakatimiz oliy o‘quv yurtlarida ta‘lim sifatini oshirish, xorijda tayyorlanadigan mutaxassisliklarni qo‘shma fakultet va institutlar ko‘magida tayyorlash tajribasi yo‘lga qo‘yildi. O‘zbekistonda oliy o‘quv yurtlari nufuzini oshirish, nodavlat ta‘lim maskanlari sonini ko‘paytirib, sohaga yuqori malakali kadrlarni jalb etish va raqobatni kuchaytirish yo‘lga qo‘yilmoqda.

Muassasalarda tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etishi hozirgi tarbiya tizimini yanada oshirib borishda asosiy omillardan hisoblanadi. Undan tashqari muassasalardagi yuridik shaxs maqomi moliya ho‘jalik faoliyatida mustaqil bo‘lgani, o‘quv kadrlarni ish sifati natijalarini xolisona baholash asosida moddiy yordam berish tarbiya sohasida o‘quv yondashuvlar asosida olib borilayotgan jiddiy ishlar hisoblanadi.

Mamlakatimiz kelajagi yoshlar qo‘lida ekan tushunchadon, ma‘naviyatli, mustaqil fikrlab, mustaqil ish yuritadigan yoshlarni tarbiyalab, mamlakat rahbari ta‘biri bilan aytganda, jamiyatimizning eng katta boyligi, aql-zakovat boyligi bo‘lmish yigit-qizlarimizni tarbiyalash mamlakatimiz hayotida birinchi darajali vazifa ekanligi ko‘p bor ta‘kidlandi.

Respublikamizda tarbiya tizimini rivojlantirish tamoyili o‘zluksiz tarbiya tizimining barcha turlarida tarbiya jarayonini demokratlashtirishni talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2019 yil 3 maydagi PQ-4307-son qarori ijrosini ta‘minlash, shuningdek, yoshlarni mustaqil hayotga dunyoqarashi keng, faol fuqarolar etib tarbiyalash maqsadida 2017 - 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini taraqqiyot strategiyasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar stratsgiyasida nazarda tutilgan aholi, ayniqsa yoshlar tarbiyasi bilan bog‘lik vazifalarni samarali amalga oshirish, ularni tinch-osoyishta hayot uchun eng zarur tayanch kompetensiyalar bilan ta‘minlash uchun;

- ma‘naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish;

- tarbiya jarayonida O‘zliksizlik, uzviylik tamoyillariga tayangan holda avvalo, onaning homiladorlik davrini to‘g‘ri tashkil etish, go‘daklar va bolalarni ma‘naviy tarbiyalash bo‘yicha asosiy yo‘nalishlarni belgilash;



- yoshlarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarini bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish;

- homiladorlik davridan boshlab 30 yoshgacha davom etadigan uzliksiz ma'naviy tarbiyani amalga oshirishda ota-ona, tarbiyachi, o'qituvchi, o'zliksiz ta'lim muassasalari va mahalla jamoatchiligining o'zaro samarali hamkorligi mexanizmini ishlab chiqish va hayotga joriy etish;

- aholining farzand tarbiyasi bo'yicha tushunchalarini, pedagogik madaniyatini oshirish, fuqarolarni yzliksiz ma'naviy tarbiyaning jahon tajribasida sinovdan o'tgan samarali pedagogik texnologiyalari, usullari va amalga oshirish shakllari bilan muntazam tanishtirib borish;

- ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, internet jahon axborot tarmog'i orqali tarqatilayotgan g'arazli axborotlar, odob-axloqni yemiruvchi illatlar, yoshlarni zalolatga boshlovchi buzg'unchi g'oyalarga karshi sog'lom dunyoqarashni shakllantirish;

- yzliksiz ma'naviy tarbiyani tashkil etishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va xususiy sektorning hamkorligini samarali yo'lga qo'yish.

Ta'lim-tarbiya sohasida o'quv yondashvlarni asoslantirish o'zida falsafiy, psixologik va ta'limning insonparvarlik g'oyalari asosida tayyorlanadi.

Yangi davr shiddati ta'lim-tarbiya tizimiga ham o'zining aniq, qat'iy talablarini qo'yimoqda.

Ushbu talablar doirasida ta'lim sohasida pedagoglarning moddiy-ma'naviy sharoiti tubdan yaxshilanib, ta'lim sifatini oshirishning zamonaviy texnologiyalari joriy qilinmoqda.

Tarbiya va ta'limni bir-biridan alohida ajratib bo'lmaydi, bu ikki jarayon o'zaro uyg'un, o'zliksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlariga ega, yuksak ma'naviyatli, shu bilan birga tushunchadon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi.

O'zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda.

Tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarini kafolatli shakllantirishda oila, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko'tarishni taqozo etadi.



Ma'naviy tarbiya sohasida o'qituvchilarning faoliyatini metodik ta'minlovchi o'quv materiallari, shu jumladan, ma'naviy tarbiya sohasiga oid metodik qo'llanmalar, o'quvchilar uchun zarur mashg'ulotliklar yetarli emas.

Shu munosabat bilan «Uzliksiz ma'naviy tarbiya» konsepsiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish orqali ma'naviy tarbiya tizimini yanada rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligi chiqargan qarorlarida o'quvchilar o'rtasida ongli intizomni kuchatirishni ta'minlash va ularning bo'sh vaqtlarini yaxshi o'tkazishga xizmat qiladigan tarbiyaviy ishlarni keng yo'lga qo'yish zarurligi ko'rsatib berilgan edi. Bu qarorda o'quvchilarning tarbiyaviy ishlarda tarbiya vazifalariga bo'ysundirilishi muassasa o'quvchilarining muvaffaqiyat bilan o'qishlariga ko'maklashuvchi va jamiyatning har tomonlama ma'lumotli holda faol o'quvchilari qilib tarbiyalashga yordam berish kerak deb aytilgan.

Boshlang'ich ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish ishlari asosan quyidagi yondashuvlardan iborat:

a. O'quvchilarda vatanparvarlik dunyoqarashini tarbiyalashda siyosiy saviyasini oshirish;

b. O'quvchilarni milliy g'oya asosida Vatanga muhabbat, millatga sadoqat ruhida tarbiyalash;

v. O'quvchilarni ijtimoiy –siyosiy faoliyatini, tashabbuskorligini o'stirish, ularning mamlakatimiz ijtimoiy –iqtisodiy hayotga ongli ravishda ishtirok etishini ta'minlash;

g. O'quvchilarning olgan tushunchalarini kengaytirish, chuqurlashtirish va amalda qo'llanish vazifasini to'g'ri hal qilishga va muassasani bitirib chiqqandan keyin erkin ravishda biron kasb tanlashga tayyorlashga yordam berish;

d. Yoshlarni o'z-o'zini boshqarish va o'stirish, san'at, jismoniy tarbiya va sport hamda boshqa sohalarga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirish;

ye. O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini xursandona o'tkazishlariga va ularning sog'liqlarini mustahkamlashga xizmat qiladigan o'yin – kulgilar va boshqa xil tarbiyaviy ishlarni yo'lga qo'yish.

Adabiyotlar:

1. R.D.Ishmuxamedov Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari Toshkent. TDPU. 2005 y.

2. A.Karimjanov. F.Ochilov. Boshlang'ich sinflarda ta'lim tarbiya muammolari.O'quv qullanma. Toshkent. Chirchiq.2021 y.

3. A.Karimjonov «Pedagogik tizimni boshqarish asoslari». (O'quv qullanma), Nizomiy TDPI Toshkent 2008

4. A.Karimjonov. «Metodikai fanni Tarbiyach» (Darslik) Toshkent 2022.